



“COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

1-SHO‘BA AXBOROT XAVFSIZLIGI

SHAXS AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINING IJTIMOIY-MADANIY TARAQQIYOTGA TA’SIRI

Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna

Farg‘ona davlat universiteti

mb.yuldasheva@pf.fdu.uz

Saminjonova Zulayho Ibrohimjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Axborot makonining globallashuvi sharoitida shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta‘minlash muammosi ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Axborotlashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta‘minlashdagi muhim omil – inson omilidir. Ushbu maqola insonda axborot-psixologik xavfsizlikni tarkib toptirish masalasini yoritishga bag‘ishlanadi

Kalit so‘zlar: axborot huruji, barqarorlik, axborot xavfsizligi, white information, yellow information, black information

So‘nggi yillarda axborot hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o‘zgarganidan qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol - axborotdir. Nega axborot xavfsizligini ta‘minlashda kompyuter emas, aloqa vositalari emas, ayni inson muhim o‘rin tutadi?, degan savolni chuqurroq anglash talab etiladi. Ayrim kuchlarning sa‘yi-harakatlari bilan axborot “harbiy snaryad”ga, ommaviy axborot vositalari esa “tajovuz quroli”ga aylantirilmoqda. Bunday qurol yordamida olib boriladigan axborot urushlarida insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Bu qurol yordamida ongga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o‘z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demak, insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Ustiga ustak, axborot urushini boshlaganlar nafaqat millat turmush tarzini, balki uning yaxshilik va yomonlik, oq va qora, savob va gunoh, rost va yolg‘on, haqidagi tasavvurlarini ham o‘zgartirishga urinadi. Ya‘ni, “shaxs qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g‘oyalar bilan quollangan, turli manbalardan



“COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

oziqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda” [1].

Vatanimizda tinchlik va milliy mustaqillikni mustahkamlash, barqaror tinchlikni o‘rnatish yo‘lida hayotiy zarur masalalarga umumiylashuvni kuchaytirish, xalqaro maydonda davlatlar va xalqlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tartibga keltirishda tashqi siyosat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ishlar respublika rahbariyatining mintaqamizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlikni qaror toptirish yo‘lida faol harakat qilib kelayotganligi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy taraqqiyotni kuchaytirish, yalpi va to‘la qurorsizlanishga erishish, tinch-totuv yashash, davlatlar o‘rtasida hamkorlik, hamdo‘stlik, o‘rtoqlarcha o‘zaro yordamni rivojlantirish va mustahkamlash, qurollanish poygasini to‘xtatish uchun kurashni faollashtirishda, barcha sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishga intilayotgan davlatlar bilan aloqalarni yanada chuqurlashtirish, xalqlarning teng huquqliligi va mustaqilligini hurmat qilish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish asosiy masalalardan biridir. Mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, qurorsizlanish masalalarini muhokama qilishga alohida ahamiyat berish, shuningdek, iqtisod, fan va texnika tarmoqlarida chuqur va barqaror aloqalarni shakllantirish, xalqaro bozorni kengaytirish va mustahkamlash, hamda ijtimoiy mehnat unumdarligini o‘stirish orqali xalq farovonligining oshirishiga erishiladi.

Axborot va xavfsizlik o‘zaro bog‘liq va to‘ldiruvchandir. Bunday bog‘liqlik “axborot xavfsizligi” tushunchasining shakllanishiga olib kelgan. Axborot xavfsizligi yaxlit xavfsizlik tizimining tarkibiy qismlaridandir. Xavfsizlik tizimida axborot ham nazariy, ham amaliy jihatdan namoyon bo‘ladi. Axborot xavfsizligining shaxsga ta‘sir etuvchi vosita va usullari aslida ko‘p, lekin an‘anaviy ravishda ular uchta asosiy turga bo‘linadi: davlat yetkazadigan rasmiy ma‘lumotlar (white information), OAV (yellow information) va norasmiy muloqotdagi axborot (black information).

Zamonaviy bosqichda shaxsning axboriy-psixologik xavfsizligiga tahdidlarning ko‘lami ancha keng. Bularning ichida asosiyalar deb quyidagilarni keltirish mumkin: Birinchi o‘rinda shaxs qadr-qimmatini poymol qilmaslik, fikr va so‘z erkinligi, adabiy, badiiy va ilmiy ijod erkinligi; Ikkinchidan shaxsiy hayotning dahlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirni himoyasi; Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari erkinligi, har bir kishi ularda qonun doirasida o‘z fikrini ayta olishi. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarida fuqarolar o‘z fikrlarini



"COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

erkin aytishlari davlat uchun xavfli emas, odamlar esa ularning so‘zini boshqalar ham eshitishini xohlaydi va shunga intiladi; To‘rtinchidan – ma‘naviy qadriyatlarga, xalqning urf-odatlariga, jamiyatning madaniy merosiga kimningdir tomonidan hujum qilinishi.

Hozirda ommaviy axborot vositalari va bu borada yangi texnologiyalar yaratilishi, shuningdek mavjud manfaatlari va ularga axborot kommunikatsiyalari orqali zarar yetkazish mumkinligi shaxs axborot-psixologik xavfsizligi masalasi dolzarbligini yanada oshirmoqda. Chunki “shaxs axborot xavfsizligi bu – uning axboriy makonining himoyalanganlik holati bo‘lib, unda avvalo shaxs va bu orqali davlat manfaatlari shakllantiriladi, rivojlantiriladi; axborot aniq bir yo‘nalish asosida (ya’ni, yaxlit tizimga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan tarzda) qo‘llanilish holati; maxfiylik, yaxlitlik, ochiqlik xususiyatlariga zarar yetkazmaslik holatidir” [1]. Rus olimi A. Baranov “shaxs axborot xavfsizligi – shaxs va uning hayotiy muhim milliy manfaatlarining, birinchidan axborotning to‘liqsiz, kechikkan va ishonchsizligi yo salbiy axborot ta’sirida, ikkinchidan, axborot texnologiyalarining salbiy faoliyati, uchinchidan, axborotning ruxsatsiz tarqatilishi natijasida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar ko‘lами minimal darajaga tushirish orqali himoyalanganlik darajasi holati”- deb ta’riflagan [2].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, “shaxs axborot xavfsizligi” tushunchasi odatda shaxs va uning hayotiy muhim manfaatlari sifatida axborot omili birinchi o‘rinda turadi. Shaxs axborot xavfsizligi modelida 3 ta asosiy kategoriya ajratib ko‘rsatiladi:

Maxfiylik – faqat maxsus huquqqa ega bo‘lgan subyektlar uchun mo‘ljallangan axborotlar;

Yaxlitlilik – axborotning ishonchliligi, to‘liqliligi va uni qayta ishlash uslublari.

Shuningdek, bir sohadagi axborotning o‘zaro uzviy bog‘liqligi;

Ochiqlik – axborotga ega bo‘lishning hamma uchun erkinligi [3].

Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, shaxs axborot xavfsizligini birinchi navbatda, uning tarkibiy qismlarining himoyalanishida deb tushuniladi.

Globallashuv sharoitida shaxs axborot-psixologik xavfsizligini ta‘minlashga erishish – amalda ijtimoiy siyosiy barqarorlikning asosiy sharti sifatida yuzaga keladi. Chunki, jamiyatdagi tartibsizlik asosan, axborotning to‘liq emasligidan yoki yolg‘onligidan kelib chiqadi. Shaxs axborot xavfsizligidagi yana bir muhim omil dezinformatsiya, ya’ni, yolg‘on, soxta axborotni to‘g‘ri, ishonchli axborotdan ajrata olish. Chunki, yolg‘on axborotga ega bo‘lish amalda



“COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

yolg‘on umid uyg‘otadi, qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, xalqaro maydonda mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot kurashlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, shaxsni turli axborot hurujlardan himoya qilish, yon-atrofdagi voqealarga daxldorlik mas‘uliyatini oshirish, Yangilanayotgan O‘zbekistonda tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алимов Р., Очилов Б., Сулейманов Ш. Анализ информации в международных отношениях. –Ташкент: УМЕД, 2007 г
2. Баранов А. Информационный суверенитет или информационная безопасность // -Деловая Украина, №24, 2002.
3. Тўраев О.Б. Шахснинг ахборот психологик хавфсизлиги – социал муоммо сифатида. ЎзМУ хабарлари №3 2013.